

## ISMMI, TAXALLUS YOHUD LAQAB?

***O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi***

***magistranti Chariyeva Shohista***

Insoniyat tarixida ism alohida o'rin tutadi. Ism shunchaki oddiy bir nom emas, balki o'zida har bir narsaning, voqea-hodisaning eng kerakli tomonlarini aks ettiradi. Xalqimizda: “Odam bolasi o'z xulq-atvori, fe'li va shu jumladan ismi bilan tug'iladi”,-degan gaplar bor. Bu bejiz emas, albatta. Bunda ota-onalarning xizmati o'z farzandlariga munosib ism topib qo'yishdadir. Ism tug'ilgan bolaning qaysi urug'dan, uning tavallud topgan vaqti, joyi va bola tanasidagi alohida belgilar hamda boshqa sabablarga qarab qo'yiladi. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, bu jarayon tarixiy davr odamlarning diniy, ma'naviy e'tiqodlariga, ananaviy udumlarga ham bog'liqdir. Masalan, Arslon ismi hayvon nomini eslatmada, u ism sifatida “botirlik, mardlik, she'ryuraklik” ma'nolarini anglatadi. Qadimda esa bu ism totemistik, ya'ni diniy e'tiqodli tasavvurni ifodalagan.

O'zbek antroponemiyasida ism bilan bir qatorda laqab va taxalluslar ham qo'llaniladi. Laqab – bu insonga boshqa insonlar tomonidan berilgan nom. Aniqroq aytganda,<sup>1</sup>”Laqab – shaxsning tashqi ko'rinishi yoki xarakteridagi ma'lum belgi-xususiyatga ko'ra, uning ijtimoiy ahvoli yoki nasl – nasabiga ko'ra nomlanishdir. Laqab ham atoqli otdir”. Tarixda shunday hollar borki, tarixiy shaxs ismidan ko'ra laqabi mashhurdir. Masalan, Temuriy zoda olim Muhammad Tarag'ay ismi bilan emas, balki laqabi bilan taniqlidir. Mirzo Ulug'bek uning ismi emas, laqabidir. Bobosi Amir Temur unga yaxshi niyat ila “Ulug'bek, ya'ni buyuk bek” deya murojat qilar edi. Bu laqab Amir Temur hayotligidayoq Muhammad Tarag'ay ismini iste'moldan siqib chiqargan. Shuningdek, Sohibqiron Amir Temurning suyukli rafiqasi – Saroy Mulk Xonimning ismidan ko'ra laqabi ”Bibixonim, ya'ni “katta xonim” keng ommada qo'llanilgan. Yana Shoh Jahonning sevimli rafiqasi – Mumtoz Mahal Begim (Saroyning ko'rki) ismi laqabdir. Uning asl ismi Arjumand bonudir. Ba'zan laqab ism bilan birga emas, mustaqil

qo'llanganda ismlar vazifasiga yaqin turadi va xuddi shaxs asosiy nomi – ismi kabi iste'molda bo'ladi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida shunday ma'lumotlar bor:<sup>2</sup>“...boridin ulug' Robia Sultonbegim edi, Qorako'z begim derlar edi”. “Qizi Saliha Sultonbegim edi, Oq begim derlar edi”. “Yana Mullozoda mullo Usmon edi... Ulug'bek mirzo zamonida o'n to'rt yoshida dars aytkoni uchun Mulla Modarzod der ekandurlar”.

Laqablardan tashqari tilimizda taxalluslar ham keng qo'llaniladi. <sup>3</sup>Taxallus – arabcha so'z bo'lib, xalos bo'lish, qutulish ma'nosini beradi. Taxallus ism va laqabdan farqli o'laroq insonga biror kishiga tomonidan emas, aksincha o'z inon- ixtiyori bilan qo'yiladigan nomdir. Bunday nomlardan asosan ijodkorlar foydalanadi. Taxalluslar ismlar singari bitta emas, bir nechta bo'lishi mumkin. Masalan, Abdulla Qodiriyning taxalluslari– Julqunboy, Ovsar, Shilg'ay va boshqalar. Hatto Qodiriy ham taxallusdir.

Ism, laqab va taxalluslardan nutqimizda foydalanamiz, biroq shuni unutmaslik kerakki, har birining o'z o'rnini, vaqti va joyi bor. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, antroponimlarning o'ziga xos tuzilmalari, yasash xususiyatlari mavjud.

1. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. Toshkent: Fan, 2013. 50-bet.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent: Fan, 1960. 75-76-betlar.

3. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent, 1972. 601-bet.